



UDK:830.01

Sohiba NASIMOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
E-mail: 906459949
E-mail: s.nasimova@gmail.com

NamMQI dotsenti P.Botirova taqrizi asosida

DIMINUTIVLIK KATEGORIYASINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada diminutivlar va ularning pragmatik xususiyatlari to'g'risida ayrim mulohazalar berilgan. Pragmalingvistika kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lib, u lisoniy tadqiqotlar markaziga inson obrazini qo'yadi. Ularning har ikalasining diqqat markazida inson ishtirok etuvchi kommunikativ vaziyatlar turadi. Bu vaziyatlarda inson jonli nutq subyekt sifatida, ichki nutq obyekti tariqasida yoki badiiy matn personaji bo'lib gavdalanadi. Diminutivlarni qo'llash esa, albatta, pragmatik vaziyatni keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Diminutivlar, pragmatika, kommunikativ maqsad, illokutiv akt, lokutiv akt, perllokutiv akt, fonopragmatika.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАТЕГОРИИ ДИМИНУТИВНОСТИ

Аннотация

В этой статье даны некоторые соображения относительно diminutivov и их прагматических свойств. Прагмалингвистика неразрывно связана с когнитивной лингвистикой, которая ставит образ человека в центр лингвистических исследований. В центре внимания обоих из них-коммуникативные ситуации, в которых участвует человек. В этих ситуациях человек воплощается как субъект живой речи, как объект внутренней речи или как персонаж художественного текста. С другой стороны, использование diminutivov, безусловно, создает прагматичную ситуацию.

Ключевые слова: Diminutivov, прагматика, коммуникативная цель, illokutivnyy akt, lokutivnyy akt, perllokutivnyy akt, фонопрагматика.

PRAGMATIC FEATURES OF THE CATEGORY OF DIMINUTION

Annotation

This article provides some considerations on diminutives and their pragmatic properties. Pragmalinguistics is inextricably linked with cognitive linguistics, which places the human image at the center of linguistic research. The focus of both of them is on the communicative situations in which a person participates. In these situations, a person is embodied as a subject of living speech, as an object of inner speech, or as a character in a literary text. On the other hand, the use of diminutives certainly creates a pragmatic situation.

Key words: Diminutives, pragmatics, communicative goal, illocutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, phonopragmatics.

Kirish. Nutqda diminutivlarni ifodalash usullari va ularning ishlash xususiyatlarini tahlil qilish bizga ushbu lingvistik toifaning pragmatik xususiyatlarini o'rganishga murojaat qilishimizga imkon beradi. Zamonaviy tilshunoslik fanida "pragmatika" atamasini tushunish juda noaniq bo'lgani uchun – u tilshunoslikning alohida bo'limini va alohida ekstralingvistik sharoitlar to'plamini va boshqa parametrlarning butun majmuasini belgilashi mumkin –ishimizda avvalo pragmatik vaziyat deganda nimani tushunishimizni qisqacha tahlil qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nutqda pragmatik belgilarning namoyon bo'lishi tadqiqida hali birmuncha ochilmagan masalalar mavjud. Jumladan "Pragmatika" atamasi yuzasidan olimlarning fikrlari turlicha ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Biroq bu fikrlarning hammasi yagona bir asosga borib taqaladi. Ya'ni pragmatika bu tilni o'rganishning shunday bir jihatiki, u shaxslarning til birliklarini yetkazib berish, qabul qilish va tushunish munosabatlarini ajratib ko'rsatadi va tadqiq etadi [1]. U bevosita tinglovchining matndan chiqarib oladigan ma'lumotni baholashi, uni semantik nuqtayi nazardan tadqiq qilishi bilan bog'liq [2]. Boshqacha aytganda, pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning

ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'sirida namoyon bo'luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador tushunchalar qatoridagi masalalarini o'rganadi [3].

Pragmalingvistika muammolariga qiziqishning ortishi tilshunoslik va uning sohalari – semantika, psixosemantika, stilistika, ematologiya va boshqalarning umumiy rivojlanishining mantiqiy natijasi bo'lib, bu erda lingvistik hodisalarni o'rganishga antropotsentrik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning yangi yo'nalishlari tilshunoslik pragmatikasi muammolarini va shuning uchun adresatga va adresatning niyatlariga nisbatan tilning ekspressiv va hissiy funktsiyasi bilan bog'liq bir qator masalalarni ilgari surdi [4].

Diminutivlikva uning pragmatik muammolariga ham dunyo tilshunosligida katta e'tibor qaratilmoqda, bu esa ushbu mavzu bo'yicha bajarilgan ko'plab ishlar bilan isbotlangan (I.V.Arnold, R.G.Zyatkovskaya, B.V.Makarychev, E. V. Malishevskaya, L.).

Muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganish diminutivni pragmatik so'z sifatida aniqlashga imkon beradi. Pragmatik so'zlar va denotativ so'zlar o'rtasidagi farq shundaki, ikkinchisi predmetni uni boshqa bir qator predmetlardan ajratib turadigan

muhim xususiyatlariga asoslanib nomlaydi. Shu bilan birga, so'zning tashqi va ichki xususiyatlarini belgilangan predmet bilan bog'lab keladi va, odatda, bunday ma'no narsaning mantiqiy ma'nosi sifatida qaraladi.

Diminutivlar pragmatik so'zlar toifasiga kiritilishining sabablari esa ularning funksional-semantik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, mazkur so'zlar diminutivlik va hissiylik toifasining o'zaro bog'liqligini namoyish etadi va tasdiqlaydi. Bu esa diminutivlarning pragmatik xususiyatlarini diminutivlik toifasidagi so'zlarning asosiy belgilaridan biri sifatida qarashga asos bo'ladi.

N.A.Sevidova va S.V.Shedogubovalarning fikriga ko'ra diminutivlarning pragmatik salohiyati dialogik nutqda asosan bolalar bilan aloqa qilishda, yaqin odamlarning nutqida, nutqqa samimiylik ifodasini berishda, kinoyani ifodalashda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, diminutiv qo'shimchalarning asosiy ma'noviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kinoya katta narsalarni ataylab kichraytirish bilan uning qiymatini pasaytirishda, shuningdek, yoqimsiz narsalarni ifodalashda erkalash diminutivlarini qo'llashda paydo bo'lishi mumkin.

Nutqda diminutivlarning pragmatik vaziyatini quyidagi holatlar yuzaga keltirishi mumkin:

- 1) modal ma'nolar – ya'ni sub'ektiv-baholovchi ma'nolarning uzatilishi asosida paydo bo'ladigan ikkilamchi sema;
- 2) so'zlovchining psixo-emotsional xususiyatlari;
- 3) aloqa jarayonida so'zlovchining nutq oqimi va nutqiy xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari;
- 4) nutq bayonotining ishlash shartlari va kontekstual xususiyatlari;
- 5) So'zlovchinning so'z boyligidagi diminutiv shakllarning paydo bo'lish manbalari.

Tahlil va Natijalar.

Modal ma'nolar yoki ikkilamchi semantika ma'lum bir bayonotning kontekstual va intonatsion jihatlarini batafsil o'rganish jarayonida aniqlanadi. Yashirin usullarni aniqlash uchun diminutivlarning leksik-semantik, fonetik va grammatik parametrlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Bunday hollarda nutq jarayonida so'zlarning to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuzi muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlovchi ma'lum nutqiy vaziyatda so'zni illokutiv maqsadda atayin noto'g'ri talaffuz qilish natijasida diminutiv so'zni shakllantiradi. M.Hakimov ham fonopragmatika haqida gapirar ekan, quyidagilarni yozadi: "... bu o'rinda talaffuzning dastlab talaffuz shakllariga xos pragmatik hodisaning ikki ko'rinishini ajratib olish mumkin bo'ladi: 1. Ma'lum tilga xos talaffuzning yagona to'g'ri shakli. 2. Ma'lum tilga xos talaffuzning noan'anaviy noto'g'ri shakli" [3]. Bu vaziyatda diminutiv so'zlar fonetik o'zgarishlar asosida yuzaga kelishi mumkin. Fikr isboti uchun quyidagi misollarga e'tiborimizni qaratamiz:

1. – Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab (O'.Hoshimov. Duniyoning ishlari).

2. Ashal qijim, chiloyli qijim (so'zlashuvdan)

3. — Shahnoza... — dedim yalinib. — Qo'y endi, Shahnoz! Xudo ursin! Rost aytyapman. Hali qayoqqa borishimiz ma'lum emas. (O'.Xoshimov. Tushda kechgan umrlar).

Keltirilgan misollarning birinchisida diminutiv bo'g'inning tushishi natijasida hosil bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda Nilufar so'zining Nilu tarzida qo'llanilishi pragmatik jihatdan erkalash ma'nosini keltirib chiqaryapti.

Ikkinchi misolda tovush o'zgarishi to'g'ri talaffuzni noto'g'ri talaffuzga aylantiryapti va bu bilan nutqdagi to'g'ri talaffuz me'yori buzilishi asosida erkalash ma'nosi yuzaga

kelyapti. Mazkur holatni biz uchala so'zda ham uchratamiz (Ashal qijim, chiloyli qijim – Asal qizim, chiroyli qizim).

Keyingi misolda erkalash ma'noli pragmatik vaziyat Shahnoza so'zidagi oxirgi unli tovush tushishi bilan yuzaga kelyapti (Shahnoz).

Umuman olganda antroponimlarning fonetik o'zgarishlar asosida diminutiv so'z mavqeida kelishi nutqda ko'p uchraydi. Bunda asosan, ismning birinchi bo'g'ini saqlanadi va -i qo'shimchasi birlashtiriladi: Xolmurod – Xol (li), Nazira – Naz(z)i. Ism -i qo'shimchasini olib qisqarganida ism oxiridagi undoshning takrorlanishi (ikkilanishi) ikki xil izohlanadi. A.G'ulomov fikricha, bu xususiyat so'z ma'nosida emotsionallikni kuchaytirishga intilish natijasidir [5]. F.Abdullayev esa uni semantik va fonetik omillarga bog'lab tushuntiradi [6]. Bizningcha bunda har ikkala olimning fikri o'rinlidir. Zero aynan ana shufonetik olimillar antroponimdan diminutiv shakllantirib, pragmatik jihatdan ularga hissiy-emotsional bo'yoqdorlik mazmunini yuklayapti.

Ko'pincha erkalash shakllari ilk asos bo'lgan asliy so'zdan tashqari ushbu shakllar ham mavjud bo'lgan asl shakllari oladi. Ismning erkalash-suyush shakli faqatgina talaffuz qilinayotgan shaklga va uni talaffuz qilayotgan shaxsga va tor doiradagi oila a'zolarigagina tushunarli bo'ladi. Demak, ismning erkalash-suyush shakllari situativ shakllardir. Rasmiy nom emas, nutq jarayonida yuzaga keladigan holatdir. Ismning erkalash-qisqartirish shakli shaxsning to'liq ismi o'rnida doimo qo'llanilgan uni ismning qonuniy qisqartirish shakli deynish mumkin [7]: Dilbar – Dili, Guljahon – Guli va h.k. Ko'rinadiki, diminutivni grammatik shakl sifatida belgilasa bo'ladi, uning yordamida modal ma'nolarning butun spektrini uzatish mumkin. Funksional grammatika nuqtai nazaridan diminutivning ikkilamchi ma'nolarini tilda sub'ektiv-baholovchi ma'nolarni uzatish usullaridan biri sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. An'anaviy grammatikaga ko'ra, diminutivning asosiy ma'nolariga "kichraytirish", "suyish", "erkalash" yoki "kamsitish" kabilar kiradi. Biroq shu bilan birga, bevosita kommunikativ jarayonda diminutivlar yordamida uzatiladigan modal ma'nolarning bir talay qo'shinchasini zahirasi aniqlanadi va ular o'z navbatida pragmatik vaziyatni yuzaga keltiradi. Ko'pincha bunday ma'nolar nazardan chetda qoladi. Biroq muallif aniq bir subyekt sifatida og'zaki matn shakllanishining umumiy qoidalariga asoslangan holda, unda berilayotgan axborotga nisbatan o'zining shaxsiy munosabatlarini ham ifodalaydi. Bu bilan so'zlovchi o'zining pragmatik tasavvurlarini hosil qiladi:

1. – Hoy, Alish! Nima hunar ko'rsatding? Hushtak chalmay yergina yutgur, adangni arog'ini to'kib tashlab butilkasini beribsan-ku. Hali qo'limga tushgin, go'shtingni bir butirdan qilmasam yurgan ekanman. (O'.Hoshimov. Duniyoning ishlari).

2. Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak... (O'.Hoshimov. Duniyoning ishlari).

3. Kela qol, o'zim senga issiq manoj olib beraman (O'.Hoshimov. Duniyoning ishlari).

4. Mavlu hech qo'ymadi-da, bolam. «Bitta o'qib beraman», dedi (O'.Hoshimov. Duniyoning ishlari).

5.– Toy-ku! Qanaqasiga ukam bo'lsin? – dedim iljayib (O'.Hoshimov. Duniyoning ishlari).

Keltirilgan misollarning birinchisida Alisher so'zining Alish tarzida qisqartirilishi aslida erkalash ma'nosini ifodalagandek ko'rinsa-da, nutqiy vaziyatga qarab ushbu diminutiv so'z pragmatik jihatdan salbiy ma'no kasb etayotganini sezish qiyin emas. Chunki aynan pragmatik vaziyatga diminutivlar ma'lum kontekstda aslida qanday ma'noda qo'llanilayotganini ifodalab bera oladi.

Ikkinchi misolda Baho va Baxti antroponimlari fonetik o'zgarishga uchraganini ko'rishimiz mumkin. Ammo bu vaziyatda mazkur diminutivlar salbiy emas, balki erkalash

ma'nosini ifodalab kelmoqda. Bunda Baho Bahodir, Baxti Baxtiyor ismlarining qisqartirilgan variantidir.

Uchinchi gapda manoj so'zi morojenoye so'zining o'zgartirilgan varianti bo'lib, mazkur so'z diminutiv sifatida yosh bolani erkalatish ma'nosini beryapti. Aynan ana shu so'z pragmatik vaziyatni keltirib chiqarmoqda. Shuni ham aytish lozimki, bu so'z boshqa tildan o'zlashtirilgan bo'lsa ham, uning aynan ana shu o'zgartirilgan shakli, aynan j tovushining sirg'aluvchi j tarzida emas, balki portlovchi j tarzida talaffuz qilinishi muvaffaqiyatli perlukativ akti hosil qilmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, kitobxon yoki tinglovchi muallif ifoda etmoqchi bo'lgan shu nozik qirralarni anglab olishi uchun tilga xos xususiyatlardan xabardor bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, bu jarayon milliy mentalitet bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan, o'zbek xalq vakili yuqoridagi misolda ifoda etilgan monoj so'zining muallifi yosh bola ekanligini tezda anglay oladi. Biroq bu ma'no nozikliklarni boshqa xalqqa tegishli odam oson ilg'ay olmasligi mumkin.

To'rtinchi misolda esa Toy so'zi Toyir ismining qisqartirilgan shaklidir. Bu ism avval Toy shakliga erkalash maqsadida keltirilgan. Ammo berilgan nutqiy vaziyatda mazkur diminutiv erkalash ma'nosida emas, balki kamsitish ma'nosida qo'llanilmoqda. Ko'rinadiki, diminutivlar so'zlovchining kommunikativ maqsadi va nutqiy vaziyatga qarab erkalash, suyish yoki kamsitish, kinoya kabi ma'nolarni anglatishi mumkin.

Yuqoridagi holat, albatta, badiiy matnlarda yoki og'zaki nutqda yuzaga keladi. Ilmiy adabiyotlarda, rasmiy uslubdagi matnlarda bu kabi pragmatik vaziyatlarni uchrata olmaymiz. Umuman olganda, matn qanchalik standart bo'lsa, u shunchalik ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi; bu vaziyatda muallifning shaxsiy pragmatik ko'rsatgichlari quyi darajada yuzaga keladi. Va aksincha, matnda badiiylik qancha yuqori

bo'lsa, ijodkorning pragmatik ko'rsatgichlari shunchalik ustun turadi [8].

Pragmatika haqida gapirar ekanmiz, nutqiy aktlar to'g'risida fikr bildirish lozim bo'ladi. Nutqiy aktlar lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali voqelanadi. Bu borada ko'pchilik olimlar nutqiy aktning uch bosqichli lokutiv, illokutiv va perlukativ harakatlardan tashkil topishini ta'kidlashadi [9]. Lokutiv harakat deyilganda, so'zlovchi tomonidan tinglovchiga biror axbrotning zatilishi va uning qabul qilinishi tushuniladi. Illokutiv harakat esa so'zlovchining kommunikativ maqsadini ifodalaydi.

Nutqiy jarayonning natijasini esa perlukativ akt ta'minlaydi. Ko'rinadiki, mazkur harakatlar og'zaki nutqda qanday faollik ko'rsatsa (so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida), yozma nutqda ham (muallif va kitobxon o'rtasida) shunday faollik ko'rsata oladi. Ko'rinadiki, diminutivlar nutq jarayonida fonetik o'zgarishlar, ya'ni tovush tushishi, o'zgarishi, bo'g'inlarning tushib qolishi orqali ham hosil bo'lishi mumkin. Diminutivlarni qo'llash esa, albatta, pragmatik vaziyatni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatda so'zlovchi o'zi niyat qilgan mazmuni yuzaga chiqarishda, nutqiy vaziyatdagi so'zlarning ba'zi tovushlarini ma'lum ichki maqsad asosida almashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pragmalingsvistika kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lib, u lisoniy tadqiqotlar markaziga inson obrazini qo'yadi. Ularning har ikalasining diqqat markazida inson ishtirok etuvchi kommunikativ vaziyatlar turadi. Bu vaziyatlarda inson jonli nutq subyekti sifatida, ichki nutq obyektini sifatida yoki badiiy matn personaji bo'lib gavdalanadi. Boshqacha aytganda, kognitiv lingvopragmatika tadqiqot predmeti sifatida inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu vaziyatlarda, albatta, diminutivlarning o'ziga xos o'rni borligini rad etib bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Turniyazova Sh.N. Matn derivatsiyasida leksik vositalarning o'rni // Dokt.dis., Farg'ona. 2021.
2. Говорова В.Ф. Прагматическая функция научного текста// Актуальные проблемы прагмалингвистики в контексте межкультурной коммуникации: материалы Всерос. науч. конф. Тольятти: ТГУ, 2006. С. 124-127.
3. Hakimov M.X. O'zbek tilida matnningprgmatik talqini // dok. diss. avtoref., - Toshkent 2001, 9-bet.
4. Резниченко Л.Ю. Прагматика диминутивности в английском и немецком языках: дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2001.
5. O'zbek tili morfologiyasiga kirish. Toshkent: Eefa Nashriyoti, 1953.
6. Abdullaev F. Ism. Dushanbe, 1972.
7. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent, 2013.
8. Turniyazova Sh. N. Matnning pragmatik belgilari xususida ayrim mulohazalar // Xorijiy filologiya.1 -son 2018 yil. 50-52-betlar.
9. Насимова, С. Я. (2024). Диминутивлар хусусида айрим мулоҳазалар. Miasto Przyszłości, 53, 906-909.